XALQARO HUQUQ DOKTRINASIDA SHARTNOMA MAJBURIYLIGIGA ROZILIKNI IFODALASH INSTITUTINING SHARTNOMANING HAQIQIY EMASLIGI, AMAL QILISHINI BEKOR QILISH, TUGATISH VA TO’XTATIB TURISHDA AHAMIYATI

Safarov Jamshid Ismoilovich

Toshkent davlat yuridik universiteti Tayanch doktorantura tadqiqotchisi

Annotatsiya. Davlatchilik evolyutsiyasining hozirgi bosqichida xalqaro shartnomalar davlatlararo munosabatlarning huquqiy asosini tashkil etib, umuminsoniy tinchlik va xavfsizlikni saqlash, xalqaro hamkorlikni BMT Nizomining maqsad va tamoyillariga muvofiq rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Shunday ekan, xalqaro huquqda shartnomalar juda muhim o’rin tutadi va shartnoma tushunchasi bilan bir qatorda shartnoma majburiyligiga rozilikni ifodalashning umumiy tushunchalari va tamoyillari xalqaro huquq doktrinasida belgilanishi kerak. Masalan, davlatlar va/yoki xalqaro tashkilotlar o’rtasida xalqaro shartnomalarning tuzilishi turli shakllarda, jumladan, “ratifikatsiya”, “rasmiy tasdiqlash akti”, “qabul qilish”, “tasdiqlash”, “vorislik” va “qo’shilish” shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Biroq, shartnoma majburiyligiga rozilikni ifodalovchi me’yorlarni birlashtiruvchi yagona xalqaro hujjat mavjud emas. Xususan, 1969-yildagi Shartnomalar huquqi to’g’risidagi Vena konventsiyasida “rasmiy tasdiqlash akti” bilan bir qatorda “vorislik” tushunchasiga aniqlik kiritilmagan. Bundan tashqari, 1896 yilgi Konventsiya hali kuchga kirmagan. Shunday qilib, ushbu maqola xalqaro huquq doktrinasida shartnoma majburiyligiga bo’lgan rozilikni ifodalash tushunchalari va normalarini birlashtirish va unifikatsiya qilishning mumkin bo’lgan yechimlarini baholaydi.

Kalit so'zlar: shartnomalar, xalqaro huquq, xalqaro shartnomalar huquqi, ratifikatsiya, qabul qilish, tasdiqlash, vorislik, qo'shilish, rasmiy tasdiqlash akti, to'liq vakolatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I5Y2024N49>

Kirish. Xalqaro shartnomalar xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi barqarorlikni saqlash va munosabatlarni tartibga solish orqali xalqaro huquq asosini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Shunday ekan, ular davlatlararo munosabatlarni, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Shu munosabat bilan shartnomalarni xalqaro huquqning asosiy manbai deb hisoblash mumkin. Xalqaro shartnomalar davlatlarning bir-biri bilan do'stona va tinch munosabatlarini ta'minlaydi va xalqaro tashkilotlarni shakllantirish, ularning ishlarini tartibga solish va nazorat qilish vositasidir. Bundan tashqari, Rober Kolb ta'kidlaganidek, shartnomalar xalqaro huquqning eng qadimgi manbasi sifatida tan olingan [1; B.1.].

Albatta, shartnomalar majburiy xususiyat kasb etuvchi xalqaro hujjat sifatida xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi eng muhim vositalardan biridir. Xalqaro huquq doktrinasida shartnomalar davlatlar o'rtasida, davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida tuzilishi mumkin [2; B.177.].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shu nuqtai nazardan shuni ta'kidlash kerakki, Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi 1969-yilgi Vena konvensiyasining (bundan buyon matnda - Konvensiya deb yuritiladi) [3] muqaddimasi [4] shartnomalarga xalqaro tartibni ta'minlashda shartnomalarning egallab turgan muhim mavqei va hal qiluvchi roli e'tirof etilgan. Muqaddimada shartnomalar doimiy mavjudligi va ularga eng katta ahamiyat berilishi kerakligi ta'kidlanadi [5].

Bundan tashqari, Xalqaro Sud Statutining 38-moddasi 1(a) bandi [6] shartnomalarning bir ko'rinishi bo'lgan xalqaro konvensiyalarni huquq manbai sifatida tan oladi.

Shartnomalar xalqaro huquqda juda muhim o'rin egallaganligi sababli, birinchi navbatda, "shartnoma" va "shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik bildirish" tushunchalarini aniqlash kerak.

Xususan, Konvensiyaning 2-moddasida "shartnoma" bitta hujjatda yoki bir-biri bilan bog'liq ikki yoki undan ortiq hujjatlarda ifodalanishidan hamda uning maxsus nomidan qat'i nazar davlatlar o'rtasida yozma shaklda tuzilgan va xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv sifatida belgilanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, O'zbekiston milliy qonunchiligida Konvensiyada qo'llanilgan "shartnoma" tushunchasi "xalqaro shartnoma" atamasi bilan almashtirib qo'llaniladi.

1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 2-moddasi 1(a) bandi [7] (keyingi o'rinlarda – 1986 yilgi Konvensiya) "shartnoma" (i) bir yoki bir nechta davlatlar va bir yoki bir nechta xalqaro tashkilotlar o'rtasida; yoki (ii) xalqaro tashkilotlar o'rtasida bitta hujjatda yoki bir-biri bilan bog'liq ikki yoki undan ortiq hujjatlarda ifodalanishidan hamda uning maxsus nomidan qat'i nazar yozma shaklda tuziladigan hamda xalqaro huquq bilan tartibga solinadigan xalqaro kelishuv sifatida ko'rsatilgan.

Muhokama. Yuqorida aytib o'tilganidek hamda sohadagi ba'zi mualliflarning ta'kidlashlariga ko'ra, shartnoma tuzish borasidagi munosabatlar ba'zan turli manfaatlariga ega bo'lgan tomonlar o'rtasida doimiy muzokaralarni o'z ichiga oladi. Xalqaro huquq instituti sifatida shartnomalarning haqiqiy emasligi, bekor qilinishi, tugatilishi va to'xtatib turilishi masalalari muhokama qilinar ekan, M.Hakimiy e'tirof etganidek, qaysi nuqtada, basharti bunday holat mavjud bo'lsa, qattiq muzokaralashish joiz bo'lmagan majburlashga aylanib ketishini hisobga olish kerak? Aksariyat milliy huquqiy tizimlardagi shartnomalar to'g'risidagi qonunchilik normalari singari, Konvensiya ham xalqaro shartnomaga bekor bo'lishi mumkinligiga taaluqli bo'lgan bir qator normalarni o'z ichiga oladi. Ushbu qoidalar qatoriga, jumladan, xatolik, firibgarlik va davlat vakilining korrupsiyasi, davlatning majburiy bo'lgan roziligining haqiqiyliki kiradi [8; B.37.].

Shu nuqtai nazardan e'tirof etish kerakki, xalqaro shartnomalarning amal qilishi, ularning amal qilishini bekor qilish, tugatish, to'xtatib turish va haqiqiy emas deb topishda birinchidan, shartnomalarning haqiqiyliki, ikkinchidan, shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik bildirish usullari ko'rsatilishi kerak. Ushbu ilmiy maqolada shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga rozilikni ifodalashning umumiy tamoyillari tahlil qilinadi.

Yuqorida qayd etilgan nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, (a) shartnomalarning huquqiy xarakteri va (b) shartnomaning majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik bildirishiga rozilik bildirish usullari ko'rsatilishi kerak. Birinchidan, "shartnoma", yuqorida aytib o'tilganidek, "davlatlar va/yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida tuzilgan xalqaro kelishuv" bo'lib, ikkinchidan, davlatning bunday turdagi xalqaro kelishuvning majburiy xususiyat kasb etishiga bo'lgan roziligini ifodalash "imzolash", "hujjatlar almashuvi" (shartnomani tashkil etgan), "ratifikatsiya", "qabul qilish", "ma'qullash", "vorislik" va "qo'shilish" hamda "rasmiy tasdiqlash akti" shaklidagi muayyan yo'llar bilangina amalga oshirilishi mumkin.

Konvensiyaning 11-moddasida davlatning shartnoma majburiylikiga roziligi imzolash, shartnomani tashkil etuvchi hujjatlarni almashish, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki qo'shilish yoki agar kelishilgan bo'lsa, boshqa vositalar bilan ifodalanishi mumkinligini belgilaydi.

Konvensiya "ratifikatsiya qilish", "qabul qilish", "ma'qullash" va "qo'shilish"ni har bir holatda davlat tomonidan xalqaro miqyosda shartnomaning o'zi uchun majburiylikiga roziligini ifodalaydigan shunday nomlangan xalqaro akt sifatida belgilaydi.

Boshqacha qilib aytganda, "imzolash", "ratifikatsiya", "qabul qilish", "ma'qullash" va "qo'shilish" xalqaro miqyosda davlat tomonidan shartnomaning majburiy bo'lishiga roziligini, odatda, yuridik kuchga ega huquqiy hujjat yoki boshqa hujjat chiqarish orqali ifodalash usulidir.

Shu bilan birga, xalqaro huquq doktrinasi "imzolash", "ratifikatsiya", "qabul qilish", "tasdiqlash", "qo'shilish", "vorislik" va "rasmiy tasdiqlash akti" kabi atamalarni davlat yoki xalqaro tashkilotning shartnomaning majburiylikiga roziligini ifodalashda foydalanish maqsadida farqlaydi.

Ratifikatsiya qilish shartnomaning majburiylikiga rozilik bildirishning eng keng tarqalgan usuli bo'lib, u qatnashchilarning vakillari tomonidan tuzilgan shartnoma ishtirokchilarining yakuniy tasdig'ini ifodalaydi. Shartnoma o'zaro kelishuvga erishilgandan va tegishli hujjatlar tegishli vakolatli vakillar tomonidan taqdim etilgandan so'ng tuzilgan bo'lsa ham, agar shartnomaning o'zida boshqacha tartib belgilanmagan bo'lsa, tomonlar bir-biriga

yoki depozitariyga ratifikatsiya hujjatini yuborgunga qadar shartnomaning majburiyligi to'xtatiladi. Shunday qilib, L.Oppenheim ta'kidlaganidek, ratifikatsiya funktsiyasi shartnomani majburiy qilishdan iborat bo'lib, basharti ratifikatsiya rad etilsa, buning natijasida, shartnoma buziladi. Ratifikatsiya qilinmagan holda, shartnoma tuzilgan bo'lsa ham, mukammal emas [9; B.554.].

1986-yildagi Konvensiyaning 2-moddasi 1(b) bandida ko'rsatilganidek, "ratifikatsiya" shunday nomlangan xalqaro akt bo'lib, unga ko'ra davlat xalqaro miqyosda shartnomaning o'zi uchun majburiyligiga roziligini ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, ratifikatsiya huquqiy hujjat bo'lib, unga ko'ra davlat o'zi tomonidan shartnomaning majburiy xususiyat kasb etishiga rozilik beradi, ishtirokchilar esa bunday hujjat orqali shartnomaning bajarilishiga o'z roziligini bildirishga tayyorliklarini e'tirof etadilar. Ratifikatsiya qilingan taqdirda, xalqaro hujjatlar ishtirokchilari muayyan vaqt oralig'ida milliy darajada shartnomani implementatsiya qilish uchun barcha zaruriy ichki jarayon (tartib-qoida)larni amalga oshirish, qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritishni ta'minlash imkoniyatiga ega bo'ladilar [10].

Shuni e'tirof etish kerakki, ikki tomonlama xarakterdagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilish ko'pincha tegishli huquqiy hujjatlarni (ratifikatsiya yorlig'i va boshqalar) almashish orqali amalga oshiriladi. Ko'p tomonlama hujjatlar holatida, depozitariy shartnomaning barcha ishtirokchilaridan ratifikatsiya hujjatlarini yig'ish va ratifikatsiya maqomidagi o'zgarishlar to'g'risida doimiy ravishda ishtirokchilarni xabardor qilish borasida vakolatli organ hisoblanadi.

Ushbu ma'noda Konvensiyaning 14-moddasi 1-bandida ko'rsatilishicha, davlat tomonidan shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalashi shartnomani ratifikatsiya qilish orqali amalga oshiriladi, basharti (a) shartnomada bunday rozilik ratifikatsiya qilish yo'li bilan ifodalanishi nazarda tutilgan bo'lsa; (b) muzokaralar olib borayotgan davlatlar ratifikatsiya qilish talab qilinishiga boshqacha tarzda kelishib olishgan bo'lsa; (c) davlat vakili ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan shartnomani imzolagan bo'lsa; (d) yoki davlatning ratifikatsiya qilinishi kerak bo'lgan shartnomani imzolash niyati uning vakilining to'liq vakolatlaridan kelib chiqsa yoki muzokaralar davomida ifodalangan bo'lsa.

1986-yilgi Konvensiyaning 2-moddasi 1(b bis) bandida "rasmiy tasdiqlash akti" tushunchasi davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan hujjatga mos keladigan xalqaro akt sifatida tavsiflanadi, bunda xalqaro tashkilot xalqaro miqyosda shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini bildiradi.

2019-yil 6-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda – "Xalqaro shartnomalar to'g'risida"gi Qonun)ning 4-moddasiga muvofiq ratifikatsiya yorlig'i bu xalqaro shartnoma O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari tomonidan ko'rib chiqilganligi to'g'risida guvohlik beruvchi va xalqaro shartnomaning O'zbekiston Respublikasi uchun majburiy ekanligiga bo'lgan rozilikni ifodalovchi maxsus hujjatdir.

Bundan tashqari, Konvensiyaning 14-moddaga asoslanib, xalqaro tashkilot tomonidan shartnomaning o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalaydigan holatlarda "rasmiy tasdiqlash akti" tushunchasi ratifikatsiya tushunchasi bilan almashtirib foydalanilishi mumkin degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Mazkur nuqtai nazardan kelib chiqib, shuni ta'kidlash kerakki, ba'zi mualliflar suverenitetning an'anaviy tushunchalariga ramziy hurmatni ifodalash hamda davlatlar uchun

“ratifikatsiya”ni saqlab qolish maqsadida hukumatlararo tashkilotlar uchun “rasmiy tasdiqlash akti” kiritilganligi g’oyasini qo’llab-quvvatlaydi.

Biroq, J.P.Dobbertning ta’kidlashicha, uning ta’siri minimal bo’lishi mumkin, chunki (i) 2.2-moddada hukumatlararo tashkilotlarning atamalarini o’z qoidalari va urf-odatlariga muvofiq ishlatish bo’yicha avtonomligi kafolatlangan, (ii) 11.2-moddadagi “yoki agar shunday kelishilgan bo’lsa har qanday boshqa vositalar bilan” iborasi, hukumatlararo tashkilotlar tomonidan bir yoki bir nechta davlatlar bilan yoki hukumatlararo tashkilotlar o’rtasida tuzilgan shartnomalarni ratifikatsiya qilish uchun yo’l ochiladi [11].

Shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni bildirishning boshqacha ko’rinishlari bu xalqaro huquq doktrinasida tegishli ravishda (A) va (AA) [12] sifatida belgilanadigan shartnomani “qabul qilish” yoki “ma’qullash” usullaridir.

Shartnomani “qabul qilish” (A) yoki “ma’qullash” (AA) shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan davlatning roziligini ifodalash ma’nosida yuridik kuchiga ko’ra ratifikatsiya instituti bilan bir xildir. Ko’pgina huquqiy tizimlarda qabul qilish va ma’qullash ratifikatsiya tushunchasi bilan bir xil ma’noda almashtirib qo’llanilishi mumkin, ichki qonunchilik esa davlat rahbari tomonidan shartnomani ratifikatsiya qilish tartibini joriy qilmaydi [13].

Ko’p tomonlama shartnomalar holatida bo’lsa, kiritilgan tartib-qoidalarini “qabul qilish” va “ma’qullash” so’nggi paytlarda shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni bildirish orqali bunday shartnomaning ishtirokchisiga aylanishning bir ko’rinishi sifatida ko’rib chiqilishi mumkin.

Bundan tashqari, “qabul qilish” va “ma’qullash” orqali shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni bildirish “uslubdan ko’ra ko’proq terminologiyaga asoslangan yangilik” sifatida e’tirof etish mumkin. Agar shartnoma oldindan imzolanmagan holda “qabul qilish” uchun ochiq bo’lsa, jarayon qo’shilishga o’xshaydi.

Shartnomadagi qabul qilish bandi mavjudligining afzalligi shundaki, bunday qoida shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni bildirishning “ratifikatsiya” qilishda nazarda tutilganidan ko’ra tezroq yuridik kuchga kirishiga imkon berishi mumkin.

Ba’zi davlatlarning ichki davlat jarayon (protsedura)lari shartnomani rasman ratifikatsiya qilishdan oldin qonun chiqaruvchi organning roziligi olinishini talab qilinadi va uzoq davom etadigan jarayon bo’lishi mumkin, bilaks “qabul qilish” jarayoni faqat ijro etuvchi organ tomonidan bajariladigan harakatlar orqali amalga oshirilishi mumkin [14; B.14.].

Masalan, Konvensiyaning 14-moddasi 2-bandida aytilishicha, davlatning shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni “qabul qilish” yoki “ma’qullash” bilan ifodalanishi shartlari ratifikatsiya qilish orqali rozilikni belgilash uchun qo’llaniladigan shartlarga o’xshash.

Shartnomaning o’zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo’lgan rozilikni ifodalashning yana bir usuli - bu “qo’shilish”(a) bo’lib, u boshqa davlatlar tomonidan oldindan kelishilgan va imzolangan shartnoma ishtirokchisi bo’lish haqidagi taklifning davlat tomonidan qabul qilinishini nazarda tutuvchi huquqiy hujjatni bildiradi.

Boshqacha qilib aytganda, “qo’shilish” tartibi uchinchi davlatlarning allaqachon mavjud bo’lgan va qoida tariqasida, kuchga kirgan xalqaro hujjatning rasmiy ishtirokchisiga aylanishi

va buning natijasida ushbu davlatlar tomonidan bunday shartnomadan kelib chiqadigan barcha huquq va majburiyatlarning tan olishini anglatadi.

Shunga qaramay, shartlar va qoidalar, jumladan, shartnomaga “qo‘shilish”ni amalga oshirish tartibi odatda shartnomaning o‘zida ko‘zda tutilgan bo‘ladi. Shartnomada ishtirokchilarning cheklanmagan soniga yoki belgilangan/cheklangan miqdordagi davlatlarga qo‘shilish imkonini beruvchi qoidalar mavjud bo‘lishi mumkin. Odatda xalqaro hujjat ishtirokchilari ma‘lum bir davlat uchun qo‘shilish imkoniyatini ochiq ifoda etadilar. Masalan, Parij deklaratsiyasi yoki Jeneva konvensiyasi kabi norma yaratuvchi deb ataladigan shartnomalar dastlab shartnoma ishtirokchisi bo‘lmagan barcha davlatlarning qo‘shilish imkoniyatini muntazam ravishda belgilaydi [9; B.569.].

Agar shartnoma qoidalarida bunday shartlar mavjud bo‘lmasa, “qo‘shilish” faqat ahdlashuvchi davlatlarning oldingi yoki keyingi kelishuvi asosidagina amalga oshiriladi [13].

“Qo‘shilish” huquqiy oqibatlarga ko‘ra, ratifikatsiya bilan bir xil bo‘lib, shartnomaning o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga bo‘lgan rozilikni bildirishning boshqa usullari bilan bir xil. Biroq, ratifikatsiyadan farqli o‘laroq, “qo‘shilish” odatda shartnoma kuchga kirgandan keyin amalga oshiriladi. Lekin, depozitariy tomonidan ba‘zida konvensiyalar kuchga kirgunga qadar davlatlar tomonidan depozitariyga xalqaro shartnomaga qo‘shilish maqsadida yo‘llangan hujjatlarni ham qabul qilishi mumkin.

“Vorislik” (d) shartnoma ishtirokchisi bo‘lgan davlat tugatilganda yoki uning hududining bir qismi ushbu ishtirokchi tomonidan boshqarilmaydigan bo‘lsa va uning hududida yangi yoki boshqa davlat paydo bo‘lganda yoki yo‘qolgan hududini bunday yangi yoki boshqa davlat nazorati ostiga o‘tganida sodir bo‘ladi. Bu holatda asosiy savol – avvalgi mavjud bo‘lmagan davlat tomonidan qabul qilingan majburiyatlarda yaqinda paydo bo‘lgan davlatga o‘tishi mumkinmi? Muayyan davlat hududida siyosiy rejimning o‘zgartirilishi, masalan, monarxiyani demokratiya bilan almashtirish, ilgari olingan majburiyatlarga o‘zgartirishlar kiritish yohud ularni bekor qilish uchun asos bo‘lmaydi.

Xalqaro huquq doktrinasi vorislikning bu xususiyatiga turlicha qarashlarga ega, davlat amaliyoti ham turlicha bo‘lgan. Shunga ko‘ra, huquqiy vorislik holatlari shartnoma bo‘yicha ilgari qabul qilingan huquq va majburiyatlarda merosxo‘r davlat uchun majburiy sifatida shartnomaning o‘zida nazarda tutilganligini aniqlash uchun ularning mohiyatidan kelib chiqqan holda alohida tahlil qilinadi.

Davlatlar yangi davlatlar paydo bo‘lganda va oldingi davlat shartnomani allaqachon ratifikatsiya qilganda, vorislik yo‘li bilan majburiyat oladilar. L.Audreyning ta’kidlashicha, garchi ko‘pincha ratifikatsiya bilan bir xil majburiyatlarga bo‘lingan bo‘lsa-da... Vorislik faqat boshqa davlatlardan ajralib chiqqan yangi davlatlar uchungina mavjud bo‘lgan shartnoma majburiyatlarining noyob va ajoyib shaklidir [15].

Davlatlarning shartnomalar bo‘yicha vorisligi to‘g‘risidagi Vena konvensiyasiga ko‘ra, vorislik tushunchasi huquq va/yoki majburiyatlarning o‘tmishdosh davlatdan uning voris davlatiga o‘tishi, shu jumladan, vorislik yuzaga kelgan sanada tuzilgan/amal qilgan shartnomalarda yoki xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi sifatida belgilanishi mumkin [16].

Davlatning yoki xalqaro tashkilotning shartnoma o‘zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifoda etishni belgilashda, davlatning ratifikatsiya qilinishi kerak bo‘lgan shartnomani imzolash niyati uning vakilining to‘liq vakolatlaridan kelib chiqishi mumkinligi ratifikatsiya uchun asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu o'rinda e'tirof etish joizki, vakilining to'liq vakolatlari shartnoma o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifoda etishda aloxida muxim o'rin tutadi. Yan Sandorskiyning ta'kidlashicha, to'liq vakolatlar xususiy huquqdan kelib chiqadi va bir shaxsga boshqa shaxs nomidan harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini berish uchun mo'ljallangan va bu turdagi harakat printsiptial (vakolat beruvchi) uchun huquqiy oqibatlariga olib keladi [17; B.77.].

“To'liq vakolatlar” xalqaro huquq instituti bo'lib, ishtirokchi davlat nomidan shaxsning xalqaro hujjatni imzolash vakolatiga ishora qiladi. Davlatning vakolatli vakillari, shu jumladan davlat rahbari, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vaziri shartnoma tuzish bo'yicha muzokaralarni boshlash va ushbu muzokaralarda ishtirok etish vakolatini tasdiqlovchi hujjat yoki shartnoma matnini autentifikatsiya qilish, shartnomani imzolash, davlatning shartnoma bilan bog'lanishiga roziligini bildirishda talab etiladigan to'liq vakolatlariga ega bo'lishi shart emas. Vakolatli vakillardan tashqari, boshqa vakillar “to'liq vakolatlarni” taqdim qilishga majburdirlar. Bunday shaxslar vakolatli vakil deb ataladi [18].

Tadqiqot natijalari. Biroq, Konvensiya “rasmiy tasdiqlash akti” bilan bir qatorda “vorislik” tushunchasini aniqlamaydi. Shu munosabat bilan va 1896-yilgi Konvensiya hali kuchga kirmaganligini hisobga olsak, huquqiy normalarni unifikatsiyalashtirishni mustahkamlash maqsadida Konvensiyaning atamalarini qo'llash qismi normalarining to'ldirilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, milliy qonunchilikni tahlil qilganda, xalqaro shartnomani tuzishning qisqacha tavsifini beruvchi “Xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi qonunda davlatning shartnoma o'zi uchun majburiy xususiyat kasb etishiga roziligini ifodalashga doir alohida tushunchalar mavjud emasligini kuzatish mumkin.

Bundan tashqari, “Xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi yuqorida qayd etilgan Qonunning 4-moddasida “to'liq vakolatlar” tushunchasi ichki nuqtai nazardan “ratifikatsiya sertifikat” va “vakolatlar” atamalarida ifodalangan bo'lib O'zbekiston Respublikasi tomonidan taqdim qilinadigan huquqiy hujjatni nazarda tutadi.

Ammo boshqa tomondan, zamonaviy shartnoma huquqi doktrinasiga ko'ra, to'liq vakolatlarni ta'minlash boshqa davlatlar vakillari tomonidan yetarli darajada zarur vakolat taqdim etilgan shaxs bilan muzokaralar olib borilayotganligi va aloqaga kirishilayotganligining asosiy kafolati bo'lib, bu shartnoma depozitariysi uchun ham unga yuklangan mas'uliyatli vazifalarni bajarish zaruriyati tufayli bir xilda muxim ahamiyatga ega [19; B.72.].

Shu munosabat bilan “Xalqaro shartnomalar to'g'risida”gi Qonunda O'zbekiston Respublikasi uchun “to'liq vakolatlar” tushunchasini tushuntiruvchi qoidalar, jumladan, hujjatning to'liq qonuniy va maqbul deb hisoblanishi sharti va qoidalarini o'z ichiga olishi zarur. To'liq vakolatlar kontseptsiyasini milliy qonunchilik nuqtai nazaridan to'liq tushunishni ta'minlash, o'z navbatida mamlakatning shartnoma tuzish qobiliyatida himoya nuqtasi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, xalqaro shartnomalar to'g'risidagi qonun a) vakolatli vakillar, (b) to'liq vakolatlar, (c) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomaning majburiylikiga roziligi tushunchalarini belgilovchi istiqbolli normalarning kiritilishi orqali o'zgartirilishi mumkin.

“Xalqaro shartnomalar to‘g‘risida”gi Qonunga ushbu o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritilishi natijasida mazkur qonun hujjatlaridan “vakolat” tushunchasini belgilovchi normalar chiqarib tashlanadi.

Qonun hujjatlariga taklif etilayotgan yuqoridagi o‘zgartishlar respublikamizning xalqaro shartnomalar huquqi sohasidagi qonunchilik normalarini yanada rivojlantirishga, shuningdek, normativ-huquqiy bazani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Robert Kolb The law of treaties. An introduction. Principles of International law. Edward Elgar Publishing Limited. – United Kingdom, 2023, 366 p.
2. Malgosia Fitzmaurice International law, ed. M.D.Evans, Oxford, 2004, 425 p.
3. Qarang: https://treaties.un.org/pages/ViewDetailsIII.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXIII-1&chapter=23&Temp=mtdsg3&clang=en.
4. Qarang: <https://lex.uz/docs/2646414>.
5. Mehak Jain Concept of Treaties in International Law// Hidayatullah National Law University// IPleaders, powered by LawSikho, June 23, 2020. Qarang: <https://blog.ipleaders.in/concept-treaties-international-law/>.
6. Qarang: https://legal.un.org/avl/pdf/ha/sicj/icj_statute_e.pdf
7. Qarang: https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXIII3&chapter=23&clang=en#1
8. J.Dunoff, M.Hakimi, S.R.Ratner, D.Wippman International law: Norms, actors, Process, a problem-oriented approach. Fifth edition. Aspen Publishing, Maryland, 2020. – P. 864.
9. L.Oppenheim International Law. A Treatise. Volume 1 (of 2). 2012, The Project Gutenberg eBook. – P. 647.
10. Dag Hammarskjöld Library. Qarang: <https://ask.un.org/faq/14594?fbclid=IwAR25gvLla6qAs9PLdMN3ZGyybJStBRzGqvZtQ54UJWUJMerUjBaLxGMBaQM>
11. J.P. Dobbert Evolution of the treaty-making capacity of international organizations. Qarang: <https://www.fao.org/3/s5280T/s5280t0a.htm>
12. Qarang: <https://treaties.un.org/>
13. Treaty Terminology Glossary. Qarang: <https://www.wipo.int/wipolex/en/info/glossary.html>
14. Frank Berman, David Bentley Book VII Treaties and Treaty-Making, 34 Treaties and other International Instruments – IV Ratification, Accession, Acceptance and Approval, Treaty Succession. Oxford, 2016, 700 p.
15. Audrey L. Comstock Committed to Rights: UN Human Rights Treaties and Legal Paths for Commitment and Compliance. Published online by Cambridge University Press: 14 January 2021. Qarang: <https://www.cambridge.org/core/books/abs/committed-to-rights/succession/F9A67473D66A3875C8F7209A676683DC>
16. Qarang: https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=TREATY&mtdsg_no=XXIII-2&chapter=23
17. Jan Sandorski, Nieważność umów międzynarodowych, Poznań, 1978, 234 p.
18. United Nations Economic and Social Commission for Western Asia, UNTERM Portal, Conference Services. Qarang: <https://archive.unescwa.org/full-powers#:~:text=Full%20Powers%20is%20a%20term,a%20treaty%20binding%20their%20government>
19. Anthony Aust Modern Treaty Law and Practice, 2nd edition, University of London, Cambridge University Press, 2012, 468 p.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).